



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING GURUHNI BOSHQARISHDAGI SALOHIYATI.

Nurmamatova Munisa Orif qizi

Samarqand Davlat Pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

nurmamatovamunisa577@gmail.com

Saydulloyeva Shoxsanam Mashrafjonovna

Samarqand Davlat Pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

boshlang'ich va maktabgacha ta'lim

nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

shoxsanamsaydulloyeva94@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchisining guruhni boshqarishdagi kasbiy salohiyati, pedagogik kompetensiyalari va ularni shakllantirishning samarali mexanizmlari tahlil qilingan. Guruhni boshqarish jarayonida o'qituvchining kommunikativ madaniyati, liderlik fazilatları, o'quvchilar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni shakllantirish ko'nikmalari hamda konfliktlarni bartaraf etish strategiyalarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Pedagogik salohiyat, liderlik ko'nikmalari, intizomni ta'minlash, tashkiliy qobiliyat, o'quvchilar bilan hamkorlik, motivatsiya berish.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida boshlang'ich sinfi o'qituvchisining kasbiy va ijodiy salohiyatini aniqlash hamda rivojlantirishga dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, o'quv jarayonlarini yangicha yondashuv asosida



tashkil etish davrida o'qituvchining ijodkorlik qobiliyati, yangilikka intilish va zamonaviy metodlardan foydalanish malakasi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining shaxsiy rivojlanishida muhim poydevor hisoblanadi. O'qituvchining metodik mahorati esa ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash, baholash hamda rivojlantirishga qaratilgan ilmiy uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Zamonaviy jamiyatning doimiy o'zgarib turadigan ehtiyojlari, etnik va jahon madaniyati tizimiga integratsiyalashgan insonni shakllantirishga qaratilgan samarali kasbiy faoliyat jarayonini optimallashtirish zarurati uning o'zini rivojlantirish potensialini o'rganishini talab qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy hayotdagi tub o'zgarishlar zamonaviy ijtimoiy jarayonga faol qo'shila oladigan, o'z kasbiy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqaradigan, o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish orqali o'z imkoniyatlarini doimiy ravishda ko'paytirishga tayyor bo'lgan shaxsni tayyorlash muammosini keltirib chiqaradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli bilim berishdan tashqari u sinf dinamikasini boshqarish va qulay o'quv muhitini yaratishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining guruhni boshqarishdagi salohiyati bu uning sinfdagi bolalar jamoasini samarali tashkil qilish, tartibini saqlab, o'quvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish va ijobiy o'quv muhitni yaratish qobiliyatini anglatadi. Ushbu salohiyat o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarni inobatga olish, o'qitish jarayonini rejalashtirish va darsni samarali tashkil etish, har bir bolaning qobiliyatiga qarab individual yondashish kabi jihatni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining guruhni boshqarishdagi salohiyati uning pedagogik mahorati, tashkilotchilik qobiliyati, muloqot madaniyati va psixologik sezgirlikiga bog'liq bo'lib, bu ko'nikmalar o'quvchilarda intizom, faollik va



o'qishga qiziqishni shakllantirishda yaqindan yordam beradi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilar uchun guruhni boshqarish salohiyatini rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. Guruhni boshqarish bu sinf jamoasining faoliyatini maqsadli yo'naltirish, o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishga sharoit yaratish, intizomni saqlash va ijobiy muhitni shakllantirish jarayonidir. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar yosh bo'lganligi uchun ular jamoa bo'lib ishlashga, o'z xatti-harakatini boshqarishga to'liq o'rganmagan bo'ladi. Shu bois o'qituvchining rahbarlik salohiyati hal qiluvchi o'rin tutadi. Pedagogik salohiyat o'qituvchining o'quv-tarbiyaviy jarayonini to'g'ri tashkil etishdagi qobiliyatini bildiradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars rejasini aniq tuza olishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olishi, darsni qiziqarli metodlar asosida tashkil etishi lozim. Shu orqali o'qituvchi guruhni samarali boshqarishi va bolalarda o'qishga ijobiy motivatsiya uyg'otishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining guruhni boshqarishdagi muhim jihati bu tashkiliy qobiliyatdir. U quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Sinf faoliyatini aniq maqsad asosida tashkil etish;
- o'quvchilarni jamoaviy ishlarga jalb qilish;
- dars vaqtini oqilona taqsimlash;
- intizom va tartibni saqlash.

O'qituvchi sinfda har bir bolaning faol bo'lishiga sharoit yaratishi, passiv o'quvchilarni ham jarayonga jalb eta bilishi kerak. Shu bilan bir qatorda sinfni boshqarishda muloqot madaniyati ham muhim o'rin tutadi. Bo'lajak o'qituvchi sinf bilan ishlashda:

- O'quvchilar bilan do'stona, lekin talabchan munosabat o'rnatishni;
- Ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashni;



– turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganishi lozim.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bunday holatlarga tayyor bo‘lishi va insonlarga nisbatan muomala salohiyatini rivojlantirishi kerak. O‘quvchilar bilan muloqot qilganda oradagi masofani saqlay olishi lozim. Uning shaxsiyatini hurmat qilgan holda ham o‘zining o‘qituvchi ekanligini his qilgan holda munosabatga kirishishi kerak.

Ota-onalar bilan munosabatda muloyim va hurmat ohangini saqlash, suhbatni ijobiy ohangda boshlash, O‘quvchining o‘qishi, tarbiyasi, muvaffaqiyati va kamchiliklari haqida vaqtida aniq axborot berib borish, o‘quvchi xatolari haqida gapirganda ham keskinlikka yo‘l qo‘ymaslik, “O‘qituvchi – o‘quvchi – ota-ona” uchlik tizimida o‘zaro ishonch va hamkorlikni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Farzandining yaxshi natijalarini ulashish ota-onada ishonch va ijobiy munosabatni kuchaytiradi.

O‘qituvchining nutqi ravon va tushunarli bo‘lishi, har bir o‘quvchi bilan individual ishlashga tayyorligi sinf muhitini ijobiylashtiradi. Ayniqsa, ishonch uyg‘otuvchi nutq madaniyati bolalarning o‘z kelajagiga, yetuk inson bo‘lib shakllanishiga ishonch hosil qildiradi.

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning xarakteri va xulqi turlicha bo‘ladi. Shu sababli o‘qituvchi quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratishi lozim:

1. Bolalarning psixologik holatini tushunish;
2. Mojaroli vaziyatlarda muvozanatni saqlash;
3. Bolalarni ruhlantirish va rag‘batlantirish.

Bu orqali o‘qituvchi sinfda sog‘lom muhit yaratadi va har bir bolaning o‘zini jamoaning muhim a‘zosi sifatida his qilishga yordam beradi.



Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchining guruhni boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, o'yin elementlari va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi mumkin. Bu esa sinfda darsning samaradorligini oshiradi va o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining guruhni boshqarishdagi salohiyati uning kasbiy mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Pedagogik tashkiliy, kommunikativ psixologik va innovatsion salohiyatga ega bo'lgan o'qituvchi o'z sinfini samarali boshqaradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq, intizom va jamoaviylik ruhini shakllantiradi. Shu bois, o'qituvchilik kasbini tanlagan bo'lajak mutaxassislar uchun guruhni boshqarish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining guruhni boshqarishdagi salohiyati sinfdagi har bir o'quvchi bilan psixologik, pedagogik asosda ishlash, jamoani bir butun holda boshqarish va ijobiy ta'lim muhitini yaratish bilan belgilanadi. Bu salohiyat kelajakdagi o'qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki sinfni lider sifatida boshqarishni ham talab qiladi. O'qituvchining guruhni boshqarishdagi salohiyati, uning sinfni boshqarish qobiliyatigina emas, balki har bir bolaning qalbiga yo'l topib, ijobiy psixologik muhit yaratgan holda darsni mazmunli va samarali tashkil etish mahoratidir. Bunday salohiyatga ega o'qituvchi sinfni buyruq bilan emas, balki ilhom, ishonch va motivatsiya orqali boshqara oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: «IQTISOD MOLIYA» nashriyoti, 2010, 312 bet.



2. Toxtaxodjayeva M.X., Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonboyeva M., Madiyarova S., Qoldibekova A., Nishonova N., Sayidahmedov N. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010 y. 400 b.
3. www.ziyouz.com